

qarap haywanniń buwaz yamasa buwaz emes ekenligin biliwimizge boladı. Lekin bul testti lazım tapsaq, qosımsha Ultra ses, IFA metodları menen tekseriwdi tolıktırsaq ta boladı.

**Juwmaqlaw:** Násilli haywanlardıń buwazlıgıń erte anıqlawdıń nátiyjelligin (92%) ға asırıwǵa erisemiz, sol sebepli jumsalatuǵın qárejetlerde tejeledi. Test juwmaǵı bir neshe márte unamsız juwmaqqa kelse hám bul juwmaq qosımsha UZI, IFA metodları menen tastıyıqlanıp, haywanda birlemshi tuqımsızlıq (besplodie) tastıyıqlansa, haywandı óndiristen shıǵarıw (brakqa shıǵarıw) isleniw kerek. Eger xorionik gonatropin antigeni suyıq yamasa poroshok formasında islense haywanlarda arnawlı qániyge emes hátteki úy shárayatında shopanlar hámde haywan iyeleri de ótkerse boladı.

#### **Paydalanılǵan ádebiyatlar**

1. Veterinariya akusherligi ginekologiyası A.R.Jabborov, S.S.Sotiboldiev
  2. R.X.Xaitov B.Z.Zaripov, Z.T.Rajamurodov «Hayvonlar fiziologiyasi» Toshkent, «Oqituvchi», 2005 yil.
  3. V.Xusainova, E.Toshpolatov «Qishloq xojalik hayvonlari fiziologiyasi» Toshkent, «Ózbekstan» 1994 yil.
  4. I.V. Georgievskiy «Fiziologiya s/x jivotnix». Moskva, Agropromizdat 1990 god.
  5. «Slovar fiziologicheskix terminov», Moskva, Nauka 1985 god.
- Internet málumotlari:  
[www.Ziyo.net.uz](http://www.Ziyo.net.uz)

### **NASLCHILIK FERMER XO‘JALIKLARIDA TANA VA G‘UNAJINLARNI JADAL O‘STIRISH VA BIRINCHI TUQQAN SERMAHSUL SIGIRLAR PODASINI YARATISHNING SAMARALI USULLARI**

**K.K.Kojambergenova**

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali*

Sut qoramolchiligini jadal rivojlantirish, mollar naslini yaxshilash bilan ularning podasini sifat jihatdan tez, qayta tiklashni taqoza etadi. Shuning uchun fermer xo‘jaliklari talablariga moslashgan nasldor tana va g‘unajinlarni jadal o‘stirish respublikada katta ahamiyatga ega. Podadagi sigirlar tarkibini yiliga 15-20% sermahsul birinchi tug‘im sigirlar bilan muntazam almashtirib borish podani yoshartirish bilan birga, ularning nasl va mahsuldorlik ko‘rsatkichlarini jadal o‘stirishni ta‘minlaydi. Bu tadbirlar ta‘minlash uchun fermer xo‘jaligi poda tarkibida sigirlar bosh soniga nisbatan 18-20 % g‘unajinlar, 20-25 % qochirish yoshidagi tanalar va 25-30% 1 yoshgacha nasldor tanalar bo‘lishi talab etiladi. Afsuski, respublikamizning ko‘pchilik fermer xo‘jaliklarida, yosh nasldor mollarni o‘stirishga yetarli ahamiyat bermasligi natijasida ularning kunlik o‘shishi 250-300 g ni tashkil etib, 18 oyligida bor yo‘g‘i 200-250 kg tosh bosishi, ulardan podani

to'ldirishda foydalanish imkoniyatlaridan mahrum qilmoqda. Natijada fermer xo'jaliklari sigirlar podasiga o'z vaqtida sermahsul birinchi tuqqan sigirlar ko'chirilmasligi, qari va kammahsul sigirlarni podadan puchak qilinmasligi sababli mahsuldorlikning jadal o'sish ko'zga tashlanmayotir. Ko'pchilik fermer xo'jaliklari o'z tana va g'unajinlarini jadal o'stirib sermahsul sigirlar podasini yaratish o'rniga xorijdan ko'plab qimmat (5-6 mln. so'm) bahoda tana va g'unajinlar sotib olmoqdalar. Har bir fermer ham xorij valyutasida mol sotib olish imkoniyatiga ega emas, shu bois fermer xo'jaliklarida ichki imkoniyatlarni ishga solgan xolda o'zi va qo'shni fermerlar, shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklari uchun sermahsul I tug'im sigirlar yoki g'unajinlar o'stirishni tashkil qilish kerak.

Qoramolchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida kelib chiqishi bo'yicha ma'qul, yaxshi rivojlangan urg'ochi buzoqlardan podani to'ldirish guruhi tashkil qilinib, ular maqsadli jadal o'stirilib 16-18 oyligida yirik zotlarda (qora-ola, golshtin, shvits) 350-360 kg, kichik zotlarda (qizil cho'l, bushuyev) 320-340 kg tirik vaznga erishganda qochirib, g'unajinlarni meyorda o'stirish evaziga 26-27 oyligida tug'ishini taminlash, kam xarajatlar bilan sermahsul sigir yetishtirish imkonini beradi. Bu maqsadda iloji boricha fermer xo'jaliklarida jahon ilg'or chorvachiligi (Isroil, Shimoliy Amerika, Yevropa mamlakatlari) tajribalaridan foydalanib (tanalarni 13-14 oyligida qochirib 22-23 oyligida tug'dirish) ularni sharoitga qarab moslab joriy etishni talab etadi. Fermer xo'jaliklarida naslchilik ishini to'g'ri yo'lga qo'yish, sigir va qochirish yoshiga yetgan tanalarni su'niy urug'lantirish va jahon genofondining asl namunalaridan foydalanib kelajakda sermahsul avlod olishni ta'minlaydi. Har bir fermer xo'jaligining tabiiy-iqlim sharoiti, iqtisodiy ahvoliga qarab u yoki bu zotni ma'qul saqlash usullarini, oziqlantirish xili (tipi) va meyorini qo'llash imkoniyatlari mavjud. Bu borada respublikada qator ilmiy tadqiqotlar o'tkazilib ijobiy natijalar, ya'ni zot va zotdorlikdagi, turli jadallikda, ratsion tipida o'stirilgan I tuqqan sigirlardan 3400-3900 kg sut sog'ib olish mumkinligi qayd etilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasining barcha tumanlarining sut ishlab chiqarishga ixtisoslashgan fermer va dehqon xo'jaliklari sharoitida podani to'ldiradigan urg'ochi tanalarni o'stirish va sermahsul birinchi tug'im sigirlarning holatini o'rganishni talab etadi. Bunday texnologiyalarning asosiy kamchiliklari yosh qoramollarni oziqlantirish va saqlash sharoitlari ular organizmining biologik talabi darajasiga to'g'ri kelmasligi, natijada ular qochirish yoshida tirik vazni bo'yicha andoza talablariga javob bermasdan podani qayta tiklash hususiyati pasayadi. Ulardan yetishtirilgan birinchi tug'im sigirlarning mahsuldorligi albatta past bo'ladi. Fermer xo'jaliklarida podani to'ldiradigan yosh qoramollarning o'rtacha kunlik semirish 350 g dan past bo'lib, urg'ochi tanalar 23-25 oyligida 340-350 kg tirik vaznda qochirilmoqda. Shuning uchun ham fermer va dehqon xo'jaliklarida podani to'ldiradigan yosh qoramollar va birinchi tug'im sigirlarni o'stirish texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha har tomonlama ilmiy izlanishlar o'tkazish ma'lum ilmiy va amaliy qiziqish uyg'otadi. Majmua ilmiy izlanishlarda O'zbekistonda xududlashtirilgan sut yo'nalishida qoramollarning sermahsul podasini o'stirish texnologiyasini asosiy elementlari (tizimlari) o'rganilib, ularning biologik talablarga mos keladigan muayyan oziqlantirish va

saqlash sharoitlari aniqlanadi, gʻunajinlarni tugʻishga tayyorlash va birinchi tugʻim sigirlarni iydish jarayonlari ularning mahsuldorligini oshirishga qaratiladi. Sut ishlab chiqarishni koʻpaytirish, sifatini yaxshilash va tannarxini pasaytirish muammolari sermahsul birinchi tugʻim sigirlarni oʻstirish texnologiyasini takomillashtirish samarali usullarini ishlab chiqish asosida amalga oshirilganligi uchun dolzarb boʻlib, xalq xoʻjaligida katta amaliy ahamiyatga egaligi ushbu ishni bajarishga asos boʻladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Maksudov I. Qoramolchilik bilan shugʻullanuvchi fermerlar uchun qoʻllanma. Samarqnd, 1997.
2. Maksudov I. Fermer xoʻjaligida podani toʻldiruvchi urgʻochi tanalarni oʻstirish. SamQXI ilmiy toʻplami, 1997, 118 b.
3. Maksudov I, Sobirov P.S, Doʻstqulov S.D. Sutchilik xoʻjaligini tashkil qilish tajribasidan. SamQXI ilmiy toʻplami, 2001 y, 185-191

## **BALIQLARNI OZIQLANTIRISH**

### **B.K.Kojambergenov**

Qaraqalpaqstan Respublikasi “Qaraqalpaqbalıq” birlespesi monitoring bólimi  
jetekshi qániygesi

**Annatatsiya:** *Maqolada polikultura usulida baliq yetishtirishning texnologik xususiyatlari keltirilgan boʻlib, zot xillari, yashash sharoiti, koʻpayishi, yosh baliq chavoqlarini oʻstirish va zamonaviy intensiv texnologiyalarni qoʻllash.*

**Kalit soʻzlar:** Intensiv, Hovuz, zot, zaxira, polikultura, ozuqa, oʻgʻit, baliq, chavoq.

**Kirish.** Respublikada sohani rivojlantirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 1 maydagi “Baliqchilik tarmogʻini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari” toʻgʻrisidagi PQ-2939- sonli, “Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar” PQ-4005-sonli qarorlariga asosan baliqchilikning xuquqiy-meʼyoriy asoslari yaratildi. Jumladan, oliy va oʻrta mahsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalarida kadrlar, shuningdek, baliqchilik tarmogʻi uchun ilmiy tadqiqotchilar, ixtiolog mutaxassislar tayyorlashning oʻquv rejalari hamda dasturlarini takomillashtirish va yangilash, kadrlar malakasini oshirish masalalari koʻtarilgan. 2022-yil 1-fevraldan boshlab jismoniy shaxslarga oʻzini oʻzi band qilgan shaxs sifatida oʻz xonadonida baliq yetishtirishni yoʻlga qoʻyishga ruxsat beriladi hamda 2025-yil 1-yanvarga qadar baliqchilikni intensivlashtirish uchun zarur boʻlgan asbob-uskunalar va texnologiyalar (aerator, basseyn, avtokormushka, UZV) hamda qayta ishlash uskunalari ishlab chiqarishni yoʻlga qoʻygan, biroq daromadining 80 foizidan ortigʻini ushbu uskunalarni ishlab chiqarishdan oladigan subyektlar uchun foyda soligʻi (tijorat banklarida joylashtirilgan mablagʻlardan olingan foizlardan tashqari), yuridik shaxslardan olinadigan yer soligʻi, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 50 foizga kamaytiriladi;

Hovuzlarda juda koʻplab baliqlar yashab koʻpaysalarda, xoʻjalik nuqtai nazaridan ularning maʼlum bir qismidagina foydalaniladilar xolos.